

2024-yil 8-oktyabr

**Qisqa muddatli kurslar, ma'ruzalar, seminarlar, treninglar va konferensiyalar orqali
ta'lim xizmatlari ko'rsatish to'g'risidagi
OMMAVIY OFERTA (Shartnoma)**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 16-yanvardagi 22-sonli qaroriga muvofiq faoliyat yurituvchi Toshkent Xalqaro Vestminster universiteti (keyingi o'rinnlarda - "TXVU") ushbu ommaviy oferta (keyingi o'rinnlarda - "Oferta") shartlari asosida jismoniy shaxslar (keyingi o'rinnlarda - "Tinglovchi") bilan ta'lim xizmatlari ko'rsatish bo'yicha shartnoma (keyingi o'rinnlarda - "Oferta/Shartnoma") tuzishni taklif etadi. Birgalikda "Tomonlar", alohida holda esa "Tomon" deb nomlanuvchi Tinglovchi va TXVU quyidagi shartlarni qabul qiladilar. Xizmatlarning to'liq ro'yxati va narxlari TXVUning rasmiy veb-saytida keltirilgan: <https://cple.wiut.uz/>.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 370-moddasiga ko'ra, Ofertaga muvofiq xizmatlarning to'liq qiymatini to'lash Tinglovchi tomonidan Ofertaning to'liq va so'zsiz qabul qilinishi hisoblanadi va bu Shartnoma tuzilgani bilan teng qiymatli hisoblanadi.

TXVU Ofertani istalgan vaqtida, Tinglovchiga alohida xabar bermasdan o'zgartirish huquqiga ega. Ofertaning yangi tahriri TXVU veb-saytida joylashtirilgan vaqtidan boshlab kuchga kiradi: <https://cple.wiut.uz/>. Ofertaning amaldagi tahriri va shartlari bilan muntazam ravishda tanishib borish Tinglovchining shaxsiy majburiyati hisoblanadi.

1. Shartnomaning predmeti

1.1. TXVU qisqa muddatli kurslar, ma'ruzalar, seminarlar, treninglar va konferensiyalar (keyingi o'rinnlarda "Kurslar" yoki "Xizmatlar" deb yuritiladi) shaklida ta'lim xizmatlarini ko'rsatish majburiyatini oladi, Tinglovchi esa ushbu Oferta shartlariga muvofiq mazkur Xizmatlarni qabul qilish va to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

1.2. Kurslar haqidagi bat afsil ma'lumotlar, jumladan ularning nomlari, o'tkazilish shakli (kunduzgi, aralash yoki masofaviy), muddatlari, narxi va boshqa ma'lumotlar TXVUning rasmiy veb-saytida joylashtiriladi: <https://cple.wiut.uz/>.

1.3. Xizmatlarni ko'rsatish muddatlari TXVU tomonidan oldindan tasdiqlangan o'quv dasturi va mashg'ulotlar jadvali asosida belgilanadi.

1.4. Kurs yakunida 2.2.6-bandga ko'ra, tinglovchiga dasturni muvaffaqiyatli tugatganligi to'g'risida Sertifikat beriladi. E'tiborli jihat, ushbu Xizmatlar yakuniy attestatsiyadan o'tkazishni nazarda tutmaydi va bunda ta'lim hamda/yoki malaka to'g'risidagi hujjalari berilmaydi.

1.5. TXVU Xizmatlarni ko'rsatish uchun uchinchi shaxslarni jalb etish huquqini o'zida saqlab qoladi.

1.6. Ushbu ofertani qabul qilishdan oldin Tinglovchi <https://cple.wiut.uz/> veb-saytida mavjud bo'lgan tanlangan Kursda ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tish shaklini to'ldirishi shart.

2. Tomonlarning huquq va majburiyatları

2.1. TXVU quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

2.1.1. O'quv dasturi va mashg'ulotlar jadvaliga muvofiq xizmatlarni tegishli tarzda ko'rsatishni tashkil etish va ta'minlash, shu jumladan xonalarni texnik jihatdan tayyorlash (sanitariya me'yorlariga mos haroratli o'quv xonasi, internet tarmog'i, marker taxtasi, kanselyariya buyumlari, hududida xizmat ko'rsatilganda proyektor);

2.1.2. Tinglovchini elektron yoki bosma shakllarda zarur o'quv materiallari bilan ta'minlash

2.1.3. Kurs, uning dasturi va jadvali haqidagi barcha zarur ma'lumotlarni Tinglovchiga yetkazish (Telegram akkaunti, elektron pochta va/yoki Tinglovchi ko'rsatgan mobil telefon raqami orqali);

2.1.4. Tinglovchidan fikr-mulohazalar olish, baholash va tahlil qilish uchun sharoitlar yaratish hamda zarur hollarda ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha tegishli choralar ko'rish;

2.1.5. Tinglovchining shaxsiy ma'lumotlari va boshqa maxfiy axborotidan faqat ushbu Oferta ijrosini ta'minlash maqsadida foydalanish, shuningdek, mavjud ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi nazarda tutilgan hollardan tashqari uchinchi shaxslarga taqdim etmaslik.

2.2. TXVU quyidagi huquqlarga ega:

2.2.1. Kurs mavzusiga qarab ta'lim shakllarini (kunduzgi, aralash yoki masofaviy), tartibini, usullarini va davriyligini, shuningdek, bilimlarni baholash tizimini mustaqil ravishda belgilash;

2.2.2. Tinglovchi tomonidan Oferta shartlari buzilgan taqdirda, xizmatlar ko'rsatishni rad etish yoki to'xtatish;

2.2.3. Mashg'ulotlar jadvaliga o'zgartirishlar kiritish, bunda Tinglovchini oldindan (mashg'ulot boshlanishidan kamida 24 soat oldin) mashg'ulotlar vaqtini hamda mashg'ulotlarni o'tkazuvchi mutaxassislar va o'qituvchilar haqidagi bo'lajak o'zgarishlar to'g'risida xabardor qilish;

2.2.4. Ta'lim berish uchun mutaxassislar va o'qituvchilar tarkibini mustaqil ravishda tanlash;

2.2.5. Bir tomonlama tartibda ushbu Oferta va O'quv dasturiga o'zgartirishlar kiritish;

2.2.6. Tinglovchi mashg'ulotlarning 30% dan ortig'ini qoldirgan yoki har bir aniq kurs bo'yicha O'quv dasturida ko'zda tutilgan shartlarni bajarmagan taqdirda, TXVU kurs dasturini muvaffaqiyatlari o'zlashtirganlik to'g'risidagi sertifikatni bermaslik;

2.2.7. Mashg'ulotlar davomida foto va videotasvirga olish hamda olingan materiallardan tinglovchi bilan kelishmasdan reklama, axborot va boshqa maqsadlarda foydalanish;

2.2.8. Ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish maqsadida tinglovchi bilan so'rovnomalar va anketalar o'tkazish.

2.3. Tinglovchi quyidagilar majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

2.3.1. TXVU mashg'ulotlari jadvaliga, yong'in xavfsizligi qoidalari va sanitariya-gigiyena me'yorlariga rioya qilish;

2.3.2. Tartib-intizomga rioya qilish va umume'tirof etilgan xulq-atvor normalariga amal qilish, xususan, TXVU xodimlari va boshqa ta'lim oluvchilarga hurmat ko'rsatish, kursning boshqa ishtirokchilarining bilim olishiga to'sqinlik qilmaslik;

2.3.3. Ta'lim dasturini vijdonan o'zlashtirish, o'quv dasturi va dars jadvalida ko'zda tutilgan barcha mashg'ulotlarga qatnashish, o'tilayotgan kurs doirasidagi o'quv topshiriqlarini bajarish;

2.3.4. TXVU mol-mulkiga hurmat bilan munosabatda bo'lish va undan belgilangan maqsadda foydalanish. Mol-mulkka zarar yetkazilgan taqdirda, Tinglovchi bu haqda ma'muriyatni darhol xabardor qilish va TXVU talabiga muvofiq zarar ko'rgan mol-mulkni ta'mirlash yoki almashtirish xarajatlarini qoplash majburiyatini o'z zimmasiga oladi;

2.3.5. Masofaviy ta'lim shaklida mustaqil ravishda zarur texnik vositalar: shaxsiy kompyuter yoki noutbuk, barqaror internet aloqasi, shuningdek, ta'lim jarayonida to'laqonli ishtiroy etish uchun zarur dasturiy ta'minotga ega bo'lish;

2.3.6. Ta'lim doirasida taqdim etiladigan o'quv materiallari va ma'lumotlarning maxfiyligiga rioya qilish. TXVUning oldindan yozma roziligesiz ushbu materiallarni har qanday shaklda va har qanday usulda tarqatmaslik, ko'paytirmaslik, nashr etmaslik yoki uchinchi shaxslarga taqdim etmaslik. Olingan materiallar va ma'lumotlardan faqat shaxsiy ta'lim olish va kasbiy rivojlanish maqsadlarida foydalanish, ulardan tijorat maqsadlarida foydalanmaslik yoki ta'lim jarayoni bilan bog'liq bo'limgan boshqa maqsadlarda qo'llamaslik. Tinglovchi mazkur qoidalarning buzilishi amalagi qonunchilikka muvofiq huquqiy javobgarlikka sabab bo'lishi mumkinligini tan oladi.

2.4. Tinglovchi quyidagi huquqlarga ega:

2.4.1. Ta'lim xizmatlariga oid masalalar bo'yicha to'liq ma'lumot olish uchun murojaat qilish, tezkor va mazmunli javoblar olish hamda dars jadvali haqidagi ma'lumotlardan foydalanish;

2.4.2. Kunduzgi ta'lim shaklida TXVU mol-mulki va tarqatma materiallaridan mashg'ulotlar davomida ta'lim jarayoni uchun foydalanish;

2.4.3. O'quv dasturlari mazmuni, o'qitish usullari, dars jadvali va ta'limning boshqa jihatlarini o'z ichiga olgan ta'lim jarayonini takomillashtirish bo'yicha TXVU tomonidan ko'rib chiqilishi uchun takliflar kiritish;

2.4.4. Ushbu Ofertaning 8-bo'limida ko'zda tutilgan hollarda mazkur Ofertani bir tomonlama bekor qilish.

3. Xizmatlar narxi va to'lovni amalga oshirish tartibi

3.1. Ta'lim xizmatlari narxi tanlangan O'quv dasturiga muvofiq belgilanadi va kursning o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. O'quv dasturlari va xizmatlarning joriy narxлari haqidagi batafsil ma'lumotni TXVUning veb-saytidan olishingiz mumkin: <https://cple.wiut.uz/>

3.2. Aksept muddati Oferta bo'yicha to'lov muddati bilan bir xil hisoblanadi. To'liq to'lov TXVU tomonidan ta'lim xizmatlari ko'rsatilishi boshlanishidan 5 (besh) bank kunidan kechiktirmasdan amalga oshirilishi lozim.

3.3. Tinglovchining ta'lim xizmatlari uchun to'lovni amalga oshirishi, uning to'lov qilishdan oldin Oferta shartlari bilan to'liq tanishib chiqqanligini va rozi ekanligini anglatadi. Oferta shartlari bo'yicha shikoyatlar bo'yicha murojaatlar faqat Tinglovchi tomonidan to'lov amalga oshirilgunga qadar yozma shaklda qabul qilinadi;

3.4. TXVU xizmatlari uchun to'lov Tinglovchi tomonidan tanlangan xizmatlar qiymatining 100 foizi miqdorida oldindan to'lov orqali amalga oshiriladi. To'lov ushbu Ofertaning 9-bo'limida keltirilgan TXVUning bank rekvizitlariga muvofiq quyidagi usullardan biri orqali amalga oshiriladi:

- O'zbekiston Respublikasi bank muassasalarida kvitansiya bo'yicha naqd pul yoki pul o'tkazish yo'li orqali. Qo'shimcha ravishda, InfinBank va UzumBank mobil to'lov ilovalaridan hamda TXVU veb-saytida mavjud boshqa ilovalardan foydalanish imkoniyati taqdim etiladi: <https://cple.wiut.uz/>

3.5. Universitet ko'rsatiladigan xizmatlar narxini o'zgartirish huquqini o'zida saqlab qoladi. Tinglovchi kurs uchun to'lovni to'liq miqdorda to'lagan taqdirda, uning narxini oshirishga yo'l qo'yilmaydi;

3.6. To‘lov majburiyati TXVU hisob raqamiga to‘liq summa kelib tushgan paytda amalga oshirilgan deb hisoblanadi;

4. Dars mashg‘ulotlar vaqtlarini ko‘chirish va o‘tkazib yuborish tartibi

4.1. Tasdiqlangan jadvalga muvofiq mashg‘ulotni o‘tkazishga to‘sinqinlik qiladigan holatlar yuzaga kelgan taqdirda, TXVU Tinglovchini mashg‘ulotning rejalarashtirilgan boshlanish vaqtidan kamida 24 (yigirma to‘rt) soat oldin xabardor qilishni o‘z zimmasiga oladi;

4.2. Belgilangan vaqtda tinglovchi mashg‘ulotda bo‘lmasa, TXVU uning ishtirokisiz mashg‘ulotni boshlash huquqini o‘zida saqlab qoladi. Bunday holda, mashg‘ulot tinglovchining tashabbusi bilan o‘tkazib yuborilgan hisoblanadi va dars mashg‘uloti qoplanmaydi yoki boshqa vaqtga ko‘chirilmaydi;

4.3. Agar dars uzrli sabablarga ko‘ra o‘tkazib yuborilsa, TXVU o‘tkazib yuborilgan materialni to‘ldirish uchun qo‘shimcha materiallar yoki maslahatlar berish imkoniyatini ko‘rib chiqadi. Darsni o‘tkazib yuborishning uzrli sabablariga quydagilar kirishi mumkin:

- Mehnatga layoqatsizlik varaqasi bilan tasdiqlangan tinglovchining kasalligi. Bunda Tinglovchi sog‘aygandan so‘ng 3 (uch) bank kuni ichida tegishli hujjatni taqdim etishi lozim.

- Rasmiy hujjat bilan tasdiqlangan xizmat safari (ko‘chirma, xizmat safari buyrug‘idan nusxa, xizmat safari guvohnomasi va shu kabilar). Tinglovchi o‘quv mashg‘uloti boshlanishidan kamida 2 (ikki) bank kuni oldin bo‘lajak xizmat safari to‘g‘risida TXVUni xabardor qilishi kerak.

- Boshqa hujjatlar bilan tasdiqlangan kechiktirib bo‘lmaydigan holatlar.

4.4. Uzrli sabablar mavjud bo‘lganda, TXVU o‘z ixtiyoriga ko‘ra, to‘langan summani qisman yoki to‘liq TXVU tomonidan taqdim etiladigan tanlangan kurslardan birida Tinglovchi tomonidan xizmatlar uchun to‘lov amalga oshirilgan paytdan boshlab 12 oydan oshmagan muddatda kelgusi o‘qish hisobiga o‘tkazishi mumkin.

5. Guruhlarni shakllantirish tartibi

5.1. Maqbul ta’lim jarayonini ta’minalash uchun TXVU o‘quv guruhidagi tinglovchilarning eng kam sonini 12 (o‘n ikki) kishi etib belgilaydi. Agar ro‘yxatdan o‘tgan tinglovchilar soni ushbu miqdorga yetmasa, TXVU kurs boshlanishini kechiktirish yoki butunlay bekor qilish huquqini o‘zida saqlab qoladi. Bunday holatlarda, o‘qish uchun to‘langan barcha mablag‘lar tinglovchining yozma arizasi asosida 10 (o‘n) bank ish kuni ichida to‘liq qaytariladi.

5.2. Kursda o‘qishni xohlovchilar soni o‘quv guruhidagi bo‘sh o‘rinlar sonidan ko‘p bo‘lgan taqdirda, tinglovchi "Kutish ro‘yxati"ga kiritiladi va bo‘sh o‘rinlar paydo bo‘lganda o‘qishga taklif etiladi.

6. Tomonlarning javobgarligi va nizolarni hal etish tartibi

6.1. Ushbu ofertani bajarish jarayonida nizolar va kelishmovchiliklar yuzaga kelganda, tomonlar ularni muzokaralar yo‘li bilan tinch hal qilish uchun barcha zarur choralarни ko‘rish majburiyatini oladilar.

6.2. Agar tomonlar muzokaralar yo‘li bilan o‘zaro maqbul qarorga erisha olmasalar, nizo O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq sud tartibida ko‘rib chiqiladi. Nizoni ko‘rib chiqish joyi TXVU joylashgan hududdagi sud yurisdiksiyasi hisoblanadi.

6.3. Tomonlar o‘rtasidagi munosabatlarning ushbu oferta qoidalari bilan tartibga solinmagan barcha jihatlari O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

7. Fors-major holatlar

7.1. Tomonlarning hech biri o‘z majburiyatlarini to‘liq yoki qisman bajarmaganligi uchun, agar bajarilmaslik Oferta tuzilganidan keyin yuzaga kelgan, Tomonlar nazoratidan tashqarida bo‘lgan fors-major holatlarning bevosita oqibati bo‘lsa, javobgar hisoblanmaydi;

7.2. Quyidagilar fors-major holatlar hisoblanadi: tabiiy hodisalar (zilzilalar, ko‘chkilar, bo‘ronlar, qurg‘oqchilik, toshqinlar va boshqalar) yoki ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlar (ommaviy noroziliklar, urush holati, qamallar, davlat manfaatlari yo‘lida import va eksportni taqiqlash, xalqaro sanksiyalar joriy etish va boshqalar), obyektiv to‘silalar (epidemiya, pandemiya, karantin), texnogen ofatlar (yong‘inlar, portlashlar va boshqalar), kutilmagan avariylar, infratuzilma tarmoqlaridagi (transport, energetika tizimlaridagi) favqulodda va keng ko‘lamli uzilishlar tufayli yuzaga kelgan, tomonlarning xohish-irodasi va harakatlariga bog‘liq bo‘lmagan, ular qabul qilgan majburiyatlarni bajara olmaydigan, mazkur sharoitlarda favqulodda, oldini olib bo‘lmaydigan va oldindan ko‘rib bo‘lmaydigan holatlar;

7.3. Bunda Oferta bo‘yicha majburiyatlarni bajarish muddati bunday holatlar va ularning oqibatlari davom etadigan vaqtga mutanosib ravishda kechiktiriladi. Ushbu Oferta bo‘yicha majburiyatlarni bajarish imkoniyati bo‘lmagan Tomon yuqorida ko‘rsatilgan holatlarning yuzaga kelishi, taxminiy amal qilish muddati va tugashi haqida boshqa Tomonni darhol yozma ravishda xabardor qiladi. Fors-major holatlari O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan beriladigan davlat namunasidagi rasmiy hujjat - sertifikat bilan tasdiqlanadi. Agar majburiyatlarni to‘liq yoki qisman bajarish imkoniyati 3 (uch) oydan ortiq vaqt davomida mavjud bo‘lmasa, TXVU Tinglovchining ehtimoliy zararlarini (shu jumladan xarajatlarini) qoplash majburiyatisiz Ofertani to‘liq yoki qisman bekor qilishga haqli bo‘ladi.

8. Boshqa shartlar

8.1. Ushbu Oferta Tinglovchi tomonidan to‘lov to‘liq amalga oshirilgan vaqtidan boshlab kuchga kiradi va Tomonlar o‘z majburiyatlarini to‘liq bajargunlariga qadar amal qiladi. Ushbu Oferta quyidagi hollarda muddatidan oldin bekor qilinishi mumkin:

- Tomonlarning o‘zaro kelishuviga ko‘ra;
- Tomonlar ushbu Oferta shartlarini bajarmagan taqdirda;
- TXVU tashabbusi bilan, kurslarga qabul vaqtida ro‘yxatdan o‘tish uchun shaklda taqdim etilgan ma’lumotlarning soxtaligi aniqlangan taqdirda;
- TXVU tomonidan bir tomonlama tartibda, Tinglovchi tomonidan kursning boshqa ishtirokchilari/TXVU xodimlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarni xizmat ko‘rsatish jarayonida, mashg‘ulotlar jadvalida bir necha marta (2 va undan ortiq) buzgan, shuningdek, ushbu Ofertada nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarmagan taqdirda;

- O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi nazarda tutilgan boshqa hollarda.

8.2. Oferta tinglovchining aybi bilan TXVU tomonidan bir tomonlama bekor qilinganda, to‘langan mablag‘lar qaytarilmaydi;

8.3. Ofertani bekor qilish to‘g‘risida qaror qabul qilingan taqdirda, Tinglovchi kurs boshlanishidan kamida 1 (bir) bank kuni oldin TXVUni xabardor qilishi shart.

Aks holda to‘lov summasi qaytarilmaydi. InfinBank va UzumBank onlayn to‘lov tizimlari orqali to‘lov amalga oshirilganda, to‘lov tizimlari komissiyasi chegirilgan holda qaytariladi. TXVU pul mablag‘larini 10 (o‘n) bank kuni ichida qaytarilishini ta‘minlaydi;

8.4. Kurs boshlangandan so‘ng Tinglovchi tomonidan Oferta bir tomonlama tartibda bekor qilingan taqdirda to‘langan mablag‘lar qaytarilmaydi;

8.5. Neustoyka (jarima, penya) to‘lash va majburiyatlarni buzganlik uchun boshqa javobgarlik choralarini qo‘llash aybdor Tomonni ushbu Oferta bo‘yicha majburiyatlarni bajarishdan ozod etmaydi.

9. TXVU rekvizitlari va ma'lumotlari

Toshkent shahridagi Xalqaro Vestminster universiteti

O'zbekiston Respublikasi, 100047, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Istiqbol ko'chasi, 12

Tel.: +99871 238-74-00, faks: +99874 236-35-99

h/r 20296000404189355001

"InFinBank" ATBda, MFO 01041

STIR 204065852, OKED 85420

Rektor Karimov K.X.